

ABDULLA ORIPOVNING “JANNATGA YO‘L” ASARI BADIY-FALSAFIY G‘OYASINING TASVIRIY YECHIMI

Mirzamahmudov Abrorbek Azimjonovich
Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy
rassomlik va dizayn insitituti magistranti
<https://doi.org/10.5281/zenodo.7582757>

Annotatsiya: Mazkur maqolada Abdulla Oripovning “Jannatga yo‘l” asari badiiy-falsafiy g‘oyasining tasviriy yechimi va uning bugungi kundagi dolzarbligi xususida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Abdulla Oripov, mifalogiya, satirik, Jannatga yo‘l, tarozibon, yopiq kalit.

O‘zbek adabiyoti va madaniyati rivojiga ulkan hissa qo‘shgan atoqli shoir, taniqli jamoat arbobi, O‘zbekiston Respublikasi davlat madhiyasi muallifi, O‘zbekiston Qahramoni Abdulla Oripovning betakror ijodiy merosi, uning Vatanga muhabbat, vafo va sadoqat tuyg‘usini, olijanob insoniy fazilatlarini madh etgan yetuk badiiy asarlari, sermazmun hayoti va ijtimoiy faoliyatining xalqimiz ma‘naviyatini yuksaltirish, yosh avlod tarbiyasidagi o‘rni beqiyosdir.

Abdulla Oripovning «Tilla baliqcha», «Men nechun sevaman O‘zbekistonni» singari dastlabki she‘rlari talabalik yillarida yozilgan va o‘zbek she‘riyatiga yangi, iste‘dodli, o‘ziga xos ovozga ega shoirning kirib kelayotganidan darak bergan. Ko‘p o‘tmay, «Mitti yulduz» (1965) ilk she‘rlar to‘plamining nashr etilishi she‘riyat muxlislarida paydo bo‘lgan shu dastlabki tasavurning to‘g‘ri ekanligini tasdiqlagan. Shundan keyin shoirning «Ko‘zlarim yo‘lingda» (1966), «Onajon» (1969), «Ruhim», «O‘zbekiston» (1971), «Xotirot», «Yurtim shamoli» (1974), «Yuzma-yuz», «Hayrat» (1979), «Najot qal‘asi» (1981), «Yillar armoni» (1983), «Haj daftari», «Munojot» (1992), «Saylanma» (1996), «Dunyo» (1999), «Shoir yuragi» (2003) singari she‘riy kitoblari nashr etilgan.

Abdulla Oripov Yozuvchilar uyushmasiga raislik qilgan kezlari O‘zbekiston eng yangi tarixi adabiy jarayoniga rahbarlik qildi. Uning she‘riyati Muhammad Yusuf kabi ko‘plab shoirlar ijodining shakllanishiga ta‘sir ko‘rsatgan. Abdulla Oripov jahon adabiyoti durdona asarlarini o‘zbek kitobxonlariga yetkazishda ham samarali mehnat qildi. U Dantening “Ilohiy komediya”sining “Do‘zax” qismini, A.S.Pushkin, N.A.Nekrasov, T.G.Shevchenko, L.Ukrainka, R.Hamzatov, Q.Quliev va M.Bayjiev asarlarini o‘zbek tiliga mahorat bilan tarjima qildi. O‘z navbatida, uning asarlari ham rus, ingliz, bolgar, turk, ukrain, turkman, ozarbayjon kabi ko‘plab xorijiy tillarga tarjima qilingan.

Insoniyat tarixida hech bir davr millati san‘ati yo‘qki diniy mavzuga murojaat qilmagan bo‘lsa. Yurtimiz ijodkorlari ham bundan mustasno emas. Atoqli shoir

Abdulla Oripov qalamiga mansub “Jannatga yo‘l” asari ham mazkur mavzu doirasiga kiruvchi asarlardan biri hisoblanadi.

“Jannatga yo‘l” dostoni 1980-yil ilk marta dunyo yuzini ko‘rgan. Asar nazm va dramaturgiya janrlari hususiyatlarini o‘z ichiga olgan. Doston fantastika yo‘nalishidagi afsonaviy-mifologik mavzu asosida yaratilgan bo‘lib, asarda adib o‘ziga azob berayotgan ichki g‘alayonni tasvirlamoqchi bo‘lgan.

Asarda adib inson o‘limidan keyin ro‘y beradigan hayotni tasvirlaydi va mifologiya asosida real voqeyilikni nazm orqali yoritib beradi. Ya‘ni maishiy turmushimizda uchrab turadigan kamchilik, gunoh va illatlarni, ularning oqibatlarini hususida o‘zgacha yondashib talqin qiladi. Ezgulikning hech kechi yo‘qligi va unga tomon yurishlikni, imkon qadar ko‘proq ezgu amallarni amalga oshirish kerak ekanligini ilgari suradi. Nomiga qaraganda Abdulla Oripovning bu dostoni adibning boshidan o‘tkazgan voqealaridan kelib chiqib yozgan deb o‘ylaysiz, sababi asardagi bosh qahramon, yosh shoir yigit. Yuqorida aytganimizdek asar hayotimizda uchrab turadigan, barchamiz ko‘rib, kuzatib yurgan illatlar, ular natijasida yuzaga keladigan dramatik va satirik voqealar qayd etiladi. Asarda keltirilgan o‘limdan keyingi dunyo, jannat, do‘zax, savol-javob va qiyomat manzaralari - bu adibning asl g‘oyalarini yetkazib berishdagi vosita xalos. Asarning boshlanishi ilohiy tarozi oldiga savobu gunohlarini sarhisob qilish uchun yig‘ilgan olomon va tarozibonning betaraf qiyofasi aks etgan manzaradan boshlanadi. Navbati yetgach qahramonimiz yosh shoir taroziga turgach gunohlari savoblaridan atigi ikki misqolgina ko‘proq ekanligini yetkazishadi. Tabiiyki hamma qatori taajjublanib, tarozibon va uning yordamchisiga e‘tiroz bildirib boshlaydi;

Agar yordam bersangiz-ku jannat ham tayin,

Ancha-muncha savobim ham bordir, o‘ldimi?!

Yigitning so‘rovi rad etiladi, sababi unga shoirlik kabi buyuk iste‘dod berilsa-da u bor mahoratini muhabbat, tabiat va shunga o‘xshash mavzularga sarflab, ko‘zlari bilan ko‘rib tursa ham hayotligida uchragan illatlarga nisbatan biron qarshilik ko‘rsatmaganligini aytishadi. Bu yerda Abdulla Oripov diniy mifologiya mavzusini niqob qilib foydalangan holda shoir yigitga tegishli bir vazifani o‘rtaga tashlaydi. Nurni tasvirlamoqchi bo‘lsang - soyani ham qo‘shishing kerak. Har qanday aql sohibi bu so‘zlar ma‘nosini yaxshi tushunib yetadi. Yigit bir qizaloqni cho‘kayotganida qutqaraman, deb o‘zi ham suvga g‘arq bo‘lgani va shu sabab erta halok bo‘lganini aytib, inobatga olinishini so‘raydi. Ozroq suhbatdan so‘ng tarozibon yigitni arosatga jo‘natilishini va u yerdan biron kishidan ikki misqol savob topib kelishini buyuradi. O‘zgalardan savob olish evaziga jannatga kirishni xohlamagan yigitga jannat darvozalari yoniga borib ota va onasini uchratishi

mumkinligi aytishgach, diydorlariga bir marta bo'lsa ham to'yib olish uchun rozi bo'ladi.

Shoir yigit ikki misqol savob qidirib shu orada diydorga umid qilib arosat sahrosiga yo'l oladi. Arosat voqeiyliklarini adib bir necha halqalarga bo'lib tasvirlaydi, ya'ni bir necha pardalarga bo'lib beradi. Yolg'onchi, shuhratparast, hasadgo'y, kibrli va ota-onasiga oq bo'lgan obrazlar bir-biriga shunday bog'liq tasvirlanganki, o'quvchi beixtiyor voqealar ummoniga g'arq bo'ladi. Adib asari orqali hayotimizda uchrab turadigan ahloqsizliklarga ilohiy tarozibon orqali hukm chiqaradi.

Asar yakunida qahramonimiz qadr don do'stini uchratadi va arosatdek qor tuynukda uchrashgan qadr donlarning o'zaro oqibati, sadoqati mukammal tasvirlanadi. Ma'lum bo'lishicha do'stiga ikki misqol savob yetmasdan sarson yurgan ekan. Qadr donlar bir-biriga jannatni ilinib, ikkisi ham savobimdan ol, deb tortishib turganida bir ovoz ularga "bir-biringizga bo'lgan sadoqatingiz tufayli ikkingiz ham ikki misqoldan savob oldingiz" deb jannatga yo'llaydi. Asar yozilishiga yarim asrdan oshgan bo'lsada, bosh mavzu hamon dolzarbligini yo'qotmagan. Umuman olganda bu asar davr va millat tanlamaydi. O'qib borar ekansiz ko'zgu aksida o'zingizni ko'rganday bo'lasiz. Sababi asardagi qahramon yo'l qo'ygan xatoliklar jamiyatimiz, davrimiz insonlari uchun odatiy holdek.

Poyoniga yetdi mo'jaz, g'alati qissam,
Bir rivoyat bahonayu, doston so'yladim.
Turli-tuman taqdirlarni aylab mujassam,
Odamlarga ibrat bo'yladim.

Fikrimizcha Abdulla Oripovning "Jannayga yo'l" dostoni yetarlicha baho berilmagan. Hozirgi yosh adabiyotchilarimiz orasida ham asar bilan tanish insonlar kam uchraydi. Asarni badiiylashtirib suratga olish, xorij kinoshunoslarining tadqiqotlari va rivojlangan davlatlar tajribalariga tayangan holda dostonda ko'tarilgan asl g'oyani keng jamoatchilikka taqdim qilish bugungi kundagi dolzarb masalalardan hisoblanadi.

References:

1. Орипов А. Жаннатга йўл (Драматик дoston). Тошкент, 1980.
2. "Қизғалдоқ баргидек учар дилдан ғам..." ёки Абдулла Орипов ижодининг фалсафий талқини. "HURRIYAT" 2021 йил 4 август.
3. Абдулла Орипов таваллудининг 80 йиллиги кенг нишонланади. "Mahalla" 2020 йил 4 декабрь.